XALQ DEPUTATLARI XORAZM VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 31 - yanvar VI-56-16-12-0-K/23 Xorazm viloyati hokimligi

Gurlan tumani hududidagi ayrim aholi punktlari nomini o‘zgartirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrda “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ–303-sonli qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrda “Geografik ob’ektlar sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 11-maydagi 01-14-674-sonli xulosasiga muvofiq xalq deputatlari viloyat Kengashi

Qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrda “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ–303-sonli qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrda “Geografik ob’ektlar sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur nomlar xalq deputatlari viloyat Kengashida ko‘rilgunga qadar tuman, viloyat hokimliklari huzuridagi “Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha komissiyalarida ko‘rib chiqilib, 2022-yilning 11-mayida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Respublika Toponimika xizmati ekspertlari guruhi tomonidan ham o‘rganilib, ijobiy xulosa olingani ma’lumot uchun qabul kilinsin.

3. Gurlan tumanida joylashgan nomsiz aholi punkti nomini Mevazor deb

nomlash va mazkur tumanda joylashgan Saritau aholi punkti nomini esa Dehqonobod nomiga o‘zgartirish xalq deputatlari viloyat Kengashi a’zolari tomonidan qo‘llab-quvvatlanganligi inobatga olinsin xamda ma’qullansin.

4. Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi Xorazm viloyati boshqarmasi (B.Jumaboyev) Gurlan tumanida joylashgan nomsiz aholi punkti nomini Mevazor deb nomlash va mazkur tumanda joylashgan Saritau aholi punkti nomini esa Dehqonobod nomiga o‘zgartirilib tasdiqlanganligini inobatga olib, Respublika davlat reestri bazasiga kiritish choralarini ko‘rsin.

5. Viloyat statistika boshqarmasi (A.O‘tamuradov) Gurlan tumanida joylashgan nomsiz aholi punkti nomini Mevazor deb nomlash va mazkur tumanda joylashgan Saritau aholi punkti nomini esa Dehqonobod nomiga o‘zgartirilib tasdiqlanganligini inobatga olib, barcha zaruriy hujjatlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin va viloyatdagi barcha boshqarma, idora va tashkilotlarni xabardor qilsin.

6. Viloyat hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (B.Qurbonov), viloyat mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi (Sh.Ibragimov), viloyat moliya bosh boshqarmasi (M.Iskandarov), viloyat ichki ishlar boshqarmasi (D.Nazarmuxamedov), viloyat soliq qo‘mitasi (X.Abdukarimov), Gurlan tumani hokimligi va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda yangi va qayta nomlangan aholi punktlari aholi va xonadonlar sonini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bilan bog‘liq tadbirlarni amalga oshirsinlar.

7. Viloyat hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (B.Qurbonov) hududlarda yangi nomlangan va nomlari o‘zgartirilgan aholi punktlarining yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

8. Gurlan tumani hokimi (U.Jumaniyazov) Gurlan tumani hududidagi ayrim aholi punktlari nomini o‘zgartirish bilan bog‘liq xarajatlarni O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrda “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ–303-sonli qonuning 20-moddasiga asosan tuman byudjeti mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga

oshirsin.

9. Viloyat hokimligi axborot xizmati (O.Adamboyev) mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishi va veb-saytga o‘rnatilishini ta’minlasin.

10. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi

11. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi R.Sherjanov zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi **A.Radjabov**